

SMTI direktori Bryusseldagi yuqori darajali muloqotda soʻzga chiqdi

HIGH-LEVEL DIALOGUE
22 January 2026 / Brussels, Belgium

EU Peacemaking and Principled Pragmatism: Whether and How to go from Political Slogan to Modus Operandi?



Panel: Leveraging Principled Pragmatism for Peace

Speaker: Eldor Aripov,
Director of the Institute for Strategic and Regional Studies
under the President of Uzbekistan (ISRS)

CMI
MARTTI AHTISAARI
PEACE FOUNDATION

**CY20
26.EU**



Joriy yilning 22-yanvar kuni Belgiyaning Bryussel shahrida Martti Ahtisaari Tinchlik fondi tomonidan Polshaning Yevropa Ittifoqi Kengashidagi raisligi va Ispaniya Tashqi ishlar vazirligi hamkorligida yuqori darajadagi muloqot oʻtkazildi.

Tinchlik boʻyicha Nobel mukofoti sovrindori, Finlyandiyaning sobiq prezidenti tomonidan asos solingan Martti Ahtisaari nomidagi tinchlik fondi Yevropa tinchlikparvar diplomatiyasi tizimida alohida oʻrin tutadi. Fond 100 dan ortiq xalqaro ekspert va 300 ta strategik sherikni qamrab olib, Yaqin Sharqdan Yevroosiyogacha boʻlgan hududlarda 50 dan ortiq tinchlik yoʻlidagi saʼy-harakatlarga faol koʻmaklashmoqda.

Tadbirda turli mamlakatlardan 120 dan ortiq yuqori martabali vakillar, jumladan, Yevropa tashqi aloqalar xizmati rahbariyati, Yevropa Ittifoqining maxsus vakillari, Yevropa Ittifoqiga aʼzo davlatlar tashqi ishlar vazirlari, BMT, Afrika Ittifoqi, Yevropaning yetakchi tahliliy markazlari va tadqiqot institutlari vakillari ishtirok etdi.

Asosiy ishtirokchilar qatorida BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi bosh kotibi Rebeka Grinspan, Yevropa Ittifoqining Sahel boʻyicha maxsus vakili Joau Kravinyu, Afrika Ittifoqi Donishmandlar guruhining aʼzosi Pumzile Mlambo-Ngkuka va boshqalar ishtirok etishdi.

Asosiy mavzu Yevropa Ittifoqi siyosiy shiordan oʻzining tashqi siyosatining operatsion mantigʻiga aylantirishga intilayotgan “printsipial pragmatizm” tushunchasini muhokama qilish boʻldi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori Eldor Aripov O'zbekiston nomidan ishtirok etdi. U "Tinchlikka erishish uchun prinsipial pragmatizmni qo'llash" mavzusidagi panel sessiyasida nutq so'zladi.

Markaziy Osiyo hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning keng qamrovli tinchlikparvar siyosati Muloqot ishtirokchilarining alohida e'tiborini tortdi. Yevropalik mutaxassislar Prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyodagi izchil va tizimli siyosatiga yuqori baho berdilar, uning nafaqat mintaqaviy xavfsizlik tizimiga, balki global miqyosda nizolarni bartaraf etish jarayonlariga ham o'tkazayotgan transformatsion ta'sirini qayd etdilar.

O'zbekiston barcha manfaatdor tomonlarni oldindan hech qanday shart qo'ymasdan jalb etishga asoslangan "inklyuziv diplomatiya"ning noyob modelini ishlab chiqqani alohida ta'kidlandi.

Mintaqa mamlakatlarining faol siyosati Markaziy Osiyoni geosiyosiy raqobat obyektidan mintaqaviy muammolarga o'z yechimlarini yaratishga qodir bo'lgan xalqaro munosabatlar subyektiga aylantirish imkonini berdi.

E.Aripov o'z nutqida ta'kidlaganidek, o'n yil avval Markaziy Osiyo hal qilinmagan chegara masalalari, suv taqsimoti bo'yicha kelishmovchiliklar, yopiq chegaralar va odamlar o'rtasidagi cheklangan munosabatlar kabi bir qator jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgan edi. Bugungi kunda esa vaziyat tubdan o'zgargan.

Barcha asosiy nizolar hal qilindi, chegaralar ochiq va funksional bo'ldi, o'zaro ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi. Mintaqaviy savdo besh barobar, o'zaro investitsiyalar hajmi ikki barobar ko'paydi, hatto pandemiya davrida ham Markaziy Osiyo mamlakatlari hayotiy muhim tovarlarni yetkazib berish uchun chegaralarni ochiq holda saqlab qoldi.

"Geografiya emas, siyosiy tafakkur o'zgardi," - dedi u.

SMTI direktori ijobiy o'zgarishlarni ta'minlagan bir necha asosiy omillarni ajratib ko'rsatdi. Ular orasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: oliy darajadagi siyosiy iroda – mintqa rahbarlarining barqarorlik va taraqqiyot yo'lini ongli ravishda tanlashi; chegaralarni belgilashdan tortib suv resurslarini boshqarishgacha bo'lgan murakkab masalalarni hal etishga amaliy yondashuv; mintqa mamlakatlarining umumiy tarixi va o'zaro bog'liqligini anglash; insonlar o'rtasidagi aloqalar, transchegaraviy savdo va sayyohlik orqali mahalliy jamoalarning faol ishtiroki yordamida mustahkamlangan tinchlik.

"Tinchlik mavhum maqsad emas, balki rivojlanish uchun amaliy zarurat sifatida qabul qilindi," - deya ta'kidladi SMTI direktori.

Eldor Aripov tashqi hamkorlar bilan munosabatlar haqida so'zlar ekan, O'zbekistonning Afg'oniston borasidagi siyosatiga alohida e'tibor qaratdi. Uning ta'kidlashicha, Toshkent izolyatsiya barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'la olmasligiga qat'iy ishonch bilan yondashmoqda.

"Izolyatsiya modernizatsiyaga ham, barqarorlikka ham yordam bermaydi - aksincha, ekstremizm va terrorizm uchun zamin yaratadi," - dedi u.

O'zbekiston iqtisodiy integratsiyaga Afg'onistonda va umuman mintaqada barqaror tinchlikning asosiy omili sifatida qaraydi. Misol tariqasida Afg'oniston va Pokiston tadbirkorlari vizasiz rejimda biznes yuritishi mumkin bo'lgan Termiz shahridagi Xalqaro savdo markazi keltirildi. Bugungi kunda u yerda 200 dan ortiq afg'on korxonalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Afg'oniston hududida sanoat klasteri tashkil etish rejalashtirilgan.

So'zining yakunida SMTI direktori Markaziy Osiyoning mintaqadan tashqarida tinchlik o'rnatishga qo'shgan hissasi tayyor yechimlarni eksport qilish emas, balki pragmatik yondashuvning samaradorligini ko'rsatishda ekanligini ta'kidladi.

"Mintaqaviy mas'uliyat, iqtisodiy integratsiya va pragmatik hamkorlik diplomatik va xavfsizlik choralari

to'ldirishga, ularning natijasini kuchaytirishga qodir," - deya xulosa qildi u.

Bryusselga tashrifi doirasida Eldor Aripov Yevropa va xalqaro tadqiqot markazlari, jumladan, Xalqaro inqiroz guruhi (ICG), Yevropa Ittifoqi xavfsizlik tadqiqotlari instituti (EUISS), Marti Axtisaari nomidagi tinchlik fondi, Yevropa siyosati markazi (EPC) va Yevropadagi Karnegi fondi vakillari bilan bir qator mazmunli uchrashuvlar o'tkazdi. Bundan tashqari, Yevropa tashqi aloqalar xizmati (EEAS) vakillari bilan muzokaralar o'tkazildi.

Suhbat chog'ida yevropalik sheriklar bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish yo'llari muhokama qilindi. SMTning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ilmiy-akademik va tahliliy markazlari bilan ekspert muloqotini faollashtirish va hamkorligiga alohida e'tibor qaratildi. Ikki va ko'p tomonlama sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va takliflar ko'rib chiqildi.

